



## IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH

**Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning o'rni, soliq tizimi ta'sirchanligini oshirish yo'nalishlari, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, soliqlarning statistik ko'rsatkichlari tahlillari amalga oshirilib, soliq tizimini yanda ta'komillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** soliq, mintaqa, ta'sirchanlik, modernizatsiya, islohot, tizim, davlat, byudjet, daromad, fiskal siyosat, investitsiya.

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ МАДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ

**Боротов Шарофиддин Жумакул угли**  
Деновский институт предпринимательства и педагогики

**Аннотация.** В статье рассмотрены роль налогов в модернизации экономики нашей страны, направления повышения эффективности налоговой системы, научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на этот счет, анализ статистических показателей налогов. Кроме того, разработаны научно обоснованные выводы и предложения по дальнейшему совершенствованию налоговой системы.

**Ключевые слова:** налог, регион, действенность, модернизация, реформа, система, государство, бюджет, доходы, фискальная политика, инвестиции.

## ENHANCING EFFICIENCY OF THE TAX SYSTEM IN THE CONDITIONS OF THE ECONOMY MODERNIZATION

**Borotov Sharofiddin Jumakul ugli**  
Denov Institute of entrepreneurship and pedagogy

**Abstract.** The article is devoted to the consideration of the role of taxes in the modernization of our country's economy, the areas for enhancing efficiency of the tax system, the scientific and theoretical views of foreign and domestic scholars in this regard, the analysis of the statistical indicators of taxes. In addition, scientifically based conclusions and proposals for further improvement of the tax system have been developed.

**Keywords:** tax, region, effect, modernization, reform, system, state, budget, income, fiscal policy, investment.

## **Kirish.**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimini shakllantirish korxonalarining biznes va innovatsion faoliyatini rag'batlantirishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Viloyatlarga kelsak, transformatsiyaning umumiy masalasi ushbu tizimdagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatini ochib berish orqali, uning yadrosini modernizatsiya qilish, byudjet va soliq tizimini optimallashtirish va mintaqa iqtisodiyotining soliq salohiyatini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, modernizatsiyaning vaqti, davomiyligi, uzluksizligi, sifat xususiyatlari haqidagi savollar juda muhimdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti bir necha bosqichlardan, shu jumladan makro-iqtisodiy barqarorlik bosqichidan o'tdi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning yuqori sur'atlariga erishishda soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning roli katta. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan samarali soliq tizimini shakllantirishdir.

Soliq tizimini isloh qilish jarayoniga nazariy yondashuvlarni kompleks tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan zamonaviy soliq tizimini modernizatsiya qilish zarurligini asoslashga asos bo'ldi.

Yetakchi rus va xorijiy olimlar tomonidan soliq tizimi va soliq tizimining ko'plab ta'riflarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, afsuski, iqtisodiy fanda mavjud bo'lgan soliq tizimi ta'riflarining barcha afzalliklari va kamchiliklari bilan ularning hech biri to'g'ri usullarni, soliq islohotlarining yondashuvlarini aniqlash uchun mos emas. Bizning fikrimizcha, soliq tizimi ta'sirchanligi-bu ijtimoiy munosabatlarning tartibli majmuasi, soliq sohasidagi institutlarni huquqiy tartibga solishdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimini ta'sirchanligining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin (Berdiyeva, 2018):

- davlat soliq siyosatining istiqbolli va joriy yo'nalishlari;
- soliq tizimining iqtisodiy xususiyatlari va tamoyillari;
- soliq va byudjet tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartlari, soliqlarni turli byudjetlarga taqsimlash tartibi;
- soliq nazorati usullari va shakli;
- soliq munosabatlari subyektlarining javobgarligi;
- soliq ishlab chiqarish shartlari va tartibi;
- soliq to'lovchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish usullariga ajratish mumkin.

## **Adabiyotlar sharhi.**

Jin, Krever, (2010) davlat mulkining nisbatan qisqarishi va xususiy sektorning yuksalishi davlat korxonalarini tomonidan taqdim etilgan mablag'lar o'rniga yangi soliqlardan tushadigan daromadlarni almashtirishga majbur qiladi. Foyda taqsimotidan soliq tushumlariga o'tish mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida hokimiyatning qayta taqsimlanishiga olib keldi va kengaytirilgan daromadlarni fiskal qayta taqsimlash, transferlarni moliyalashtirish uchun qo'llash ijobiy natijalar bera boshlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xorijiy investitsiyalar oqimi soliq qonunchiligi va soliq ma'muriyatchiligini qayta ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqaradi.

Besfamille, Siritto (2009) modernizatsiya qilishda birinchi navbatda, amalga oshirish zaruriyati bo'lgan optimal moliyaviy siyosatni tahlil qilish lozim. Assimetrik ma'lumotlar soliq tizimi ta'sirchanligini oshirishda asos bo'lib hizmat qiladi. Davlat olib boriladigan soliq va majburiy siyosatni o'z zimmasiga olishi mumkinligi sababli, soliqni loyihalash yondashuvini qabul qilgan optimal soliq qonunini tavsiflashi lozim. Shundagina modernizatsiya qilish jarayonida soliq tizimini yanada takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Taufik (2018) soliq tizimi ta'sirchanligini isloh qilish yoki modernizatsiya qilish soliq yig'uvchi organlarning sa'y-harakatlari yoki faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi. Bunday

islohot yanada samaraliroq, tejamkorroq va tezroq natijalarga erishish uchun yakka tartibda yoki guruh tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Modernizatsiya jarayoni tashkiliy tuzilma, tartib, strategiya va madaniyatga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday modernizatsiya jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun soliq tuzilmasini soddalashtirish, tegishli islohotlar strategiyasini ishlab chiqish, soliq ma'muriyatchiligi tizimini isloh qilish bo'yicha kuchli siyosiy majburiyatni ta'minlash zarur.

Roshupkina (2012) modernizatsiya mezonlari - bu innovatsiyalarni oshirish, alohida bo'linmalar va umuman, davlatning butun fiskal tizimining samaradorligi ko'rsatkichidir. Innovatsiyalar va samaradorlik hududlarning soliq tizimi ta'sirchanligini o'sishida, mintaqaning o'zini o'zi rivojlantirishni ta'minlash qobiliyatida yoki o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatining oshishida namoyon bo'ladi.

Leonova, Mitrofanova (2010) soliq tartib-taomillarini amalga oshirish sifatini oshirish uchun soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish standartlari va soliq organlarida ma'muriy normativ hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini joriy etish, axborot ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish, soliq xizmati xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va rag'batlantirishni kuchaytirish, ular mehnatini ilmiy-uslubiy ta'minlashni takomillashtirish, byudjet islohoti davrida soliq to'lovchilar mablag'larini sarflash samaradorligi va shaffofligini oshirish, ijtimoiy ta'minot sifatini oshirish lozim.

Nomozov (2023) chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar sharoitida soliqlarning muhimligi va funksional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda soliqlarni samarali qo'llash sohasini to'g'ri aniqlash alohida ahamiyatga ega. Soliqlar davlatning asosiy vositalaridan biridir. Ular inson va jamiyat hayotining eng muhim jihatlariga, shuningdek soliq qonunchiligini rivojlantirish va uni qo'llash jarayoniga keskin qarama-qarshiliklar va murosalar bilan uzviy bog'liqdir.

Shamshetova, Aytmuratova (2018) O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari salohiyatini modernizatsiya qilishga ko'maklashadigan, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini rag'batlantiradigan fiskal vositalar asta-sekin yaratilmoqda. Soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq stavkalarini optimallashtirish, taqdim etilgan soliq imtiyozlarining katta qismi, shubhasiz, ayrim tarmoqlarda, xususan, kichik va xususiy tadbirkorlikda investitsiya jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqot davomida maqolada analitik tahlil, ma'lumotlarning statistik tahlili, soliq tizimi ta'sirchanligini oshirishning yo'nalishlari, soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash jarayonlari analitik tahlil qilindi. Tadqiqot ishimizda analitik tahlil va qiyosiy yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammolar ochib berilib, uning yechimi sifatida tegishli tartibda xulosa va takliflar, asosiy yo'nalishlar kelitirib o'tildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekistonda soliq tizimi faoliyati misol qilib olingan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Soliq islohotiga mos keladigan soliq tizimining yangi ta'rifi shakllantirish, to'g'ridan-to'g'ri soliq tizimini isloh qilish yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi. Har qanday tizimni uning elementlarini qisqartirish orqali yaxshilash mumkin, chunki bu tizimni sodda va tushunarli qiladi, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yoki "to'siqlarni" kamaytirishga imkon beradi. Soliq tizimi tushunchasi doirasida tizim elementlarini qisqartirish soliqlar sonini kamaytirishdir.

2022-yil yakunlariga ko'ra, YAIM o'sishi 5,7 % ga yetdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 93,2 % ini


tashkil etdi va 6,2 % ga o'sdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 0,8 % ga kamaydi<sup>7</sup>.

Soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatini takomillashtirish va tegishli rag'batlantirish choralarini kengaytirish siyosatini davom ettirish ustuvor vazifadir. Ushbu vazifalar "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi" da yanada qat'iy va har tomonlama belgilab berildi: "...soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatini takomillashtirish va tegishli rag'batlantirish choralarini kengaytirish bo'yicha kursni davom ettirish" (Farmon, 2022) muhim yo'nalish sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining soliq siyosati sohasidagi ustuvor yo'nalishi o'rta va uzoq muddatli istiqbolda byudjet barqarorligini ta'minlaydigan samarali va barqaror soliq tizimini yaratishdir. Soliqning asosiy maqsadi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosati bo'lib qolmoqda, shu jumladan uni rag'batlantirishga qaratilgan yangi imtiyozlar berish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlarini yaratish orqali iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiyoti modernizatsiya qilish sharoitida globallashuv jarayonlarining natijasi bo'lgan boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan bog'liqligini unutmaslik kerak. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon ishlab chiqarishining arzon narxlardagi mamlakatlarga o'tishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida eksport qiluvchi mamlakatlarda daromadlarning o'sishiga olib keldi. Natijada, tejamkorlik jahon moliya bozorida nomutanosiblikka aylandi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqlar kuchayib bordi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2021-yil yakunlari bo'yicha mahsulotlarga sof soliqlarning YaIMdagi ulushi Moldovada - 14,2 %, Ukrainada - 14,1 %, Qirg'izistonda - 13,4 %, Belarus Respublikasida - 12,7 %, Armanistonda - 11,0 %, Rossiya Federatsiyasida - 10,2 %, Ozarbayjonda - 8,4 %, O'zbekistonda - 7,2 %, Qozog'istonda - 6,4 % tashkil etgan.



**1-rasm. Ishlab chiqarish va importga sof soliqlarning YaIMdagi ulushi<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34342-2022-yilda-yaim-iqtisodiy-faoliyat-turlari-bo-yicha-qanday-o-sdi>

<sup>8</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23726-mahsulotlarga-sof-soliqlarning-yalpi-ichki-mahsulot-tarkibidagi-ulushi>

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud zaxiralar va imkoniyatlarni faol jalb qilish soliq siyosatini modernizatsiya qilishga ham bog'liq. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimining eng muhim yo'nalishi sifatida soliq tizimini modernizatsiya qilishni samarali amalga oshirish progressiv iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan asosiy omillardan biridir.

Yangi munosabatlarga o'tishning zamonaviy sharoitida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli sohalarida islohotlar keng miqyosda amalga oshirilganda, soliq tizimini modernizatsiya qilish eng muhim omilga aylanadi. Ushbu jarayonda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishning eng jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan turli vektorlaridagi o'zgarishlarni amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu islohot jarayoni ta'siri ostida mamlakatning iqtisodiy muhiti, soliq va ijtimoiy siyosati sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda.

Samarali amalga oshirish bosqichiga kirayotgan soliq islohotining barcha vektorlarini modernizatsiya qilishga asoslangan O'zbekistonning soliq siyosati uni zamonaviy omillarni hisobga olgan holda yanada takomillashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, aholining turmush darajasini yaxshilashda ushbu siyosatning tobora ortib borayotgan ahamiyati shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi. Bu mamlakatda samarali va Real iqtisodiy o'sishning barqaror kafolati bo'lishi kerak bo'lgan soliq tizimini modernizatsiya qilishning samarali shakllarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 750,9 trln. so'mga yetdi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 396,3 trln. so'm, xizmatlar ko'rsatish sohasida 314,0 trln. so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 40,6 trln. so'mni tashkil etdi (2023; www.stat.uz).

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yil ma'lumotlari bilan taqqoslaganda 0,2 foiz punktga, 2017-yil bilan taqqoslaganda esa 3,8 foiz punktga kamaygan<sup>9</sup>.



2-rasm. Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi<sup>10</sup>

<sup>9</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/46163-o-zbekiston-respublikasining-yalpi-ichki-mahsuloti-tarkibi-qanday>

<sup>10</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24003-mdh-davlatlarida-mahsulotlarga-sof-soliqlarning-yaimdagi-ulushi-qanday>

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini modernizatsiya qilish bugungi kunda butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o'rni, aholi daromadlari va farovonligi darajasi, yaqin va uzoq istiqbolda mamlakatning madaniy rivojlanishi va kelajagi, albatta, soliq tizimini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishning muvaffaqiyatiga bog'liqdir.

Yetakchi mahalliy iqtisodchilarning fikriga ko'ra, mintaqaning byudjet va soliq tizimini modernizatsiya qilish asosida mintaqaning soliq salohiyati tarkibini takomillashtirish mexanizmlari o'rnatilishi kerak. Modernizatsiya qilishning asosiy vositalari strategik va dasturiy hujjatlardir. Ulardan foydalanish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hududiy strategik rejalashtirish tizimiga uni amalga oshirishning maqsadlari, vazifalari va mexanizmlarini "moslashtirish", iqtisodiy maqsadlarni ijtimoiy maqsadlar bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Muayyan strategik, rejalashtirilgan yoki dasturiy hujjatni ishlab chiqishda bo'lgani kabi, davlat byudjet va soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida quyidagi tashkiliy bosqichlar (qadamlar) ajratiladi:

- analitik bosqichi;
- maqsadlarni belgilash bosqichi;
- qarorlarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish bosqichi;
- dizayn bosqichi;
- amalga oshirish bosqichi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimining ta'sirchanligini oshirishda quyidagi jihatlarni e'tiborga olgan holda amalga oshirish lozim:

- mikro, kichik, o'rta va yirik korxonalar tarkibi va xaqiqiy sonini aniqlash;
- makroiqtisodiy barqarorlik va samarali budjet-soliq tizimini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- moliya tizimining barqaror ishlashi va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash.

Soliq tizimi ta'sirchanligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu mintaqalarning mustaqilligi va javobgarligini oshirishga qaratilgan turli darajadagi byudjetlar bo'yicha belgilangan soliqlarni o'zgartirishdir.

Budjet-soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ijro etuvchi hokimiyat organlari va budjet mablag'lari boshqaruvchilarining budjet-soliq vakolatlarini davlat organlari faoliyati natijalarining ijtimoiy ahamiyati mezonlarini belgilash va moliyaviy vakillarning yurisdiksiyasini hisobga olgan holda davlat funksiyalarini qiymat ifodasida amalga oshirishning umumlashtiruvchi natijalarini aniqlash lozim.

### **Xulosa va takliflar.**

Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda samarali soliq siyosati chora-tadbirlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Mamlakatimiz soliq tizimini ta'sirchanligini oshirishning muhim jihatlarni o'rganish bir qator nazariy va tahliliy xulosalar va amaliy tavsiyalarni asoslashga imkon berdi:

1. Soliq tizimini modernizatsiya qilish murakkab va ziddiyatli jarayondir. Xorijiy amaliyotda ilmiy tadqiqotlar rivojlanganiga qaramay, mamlakatimiz soliq tizimini modernizatsiya qilish, ustuvor vazifalar va mexanizmlarni barqarorlashtirish bo'yicha tadqiqotlarga muhtoj.

2. Soliq tizimini ta'sirchanligini oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishi, birinchi navbatda, mahalliy korxonalarga milliy va xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun imtiyozli soliq sharoitlarini yaratish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'lishi kerak.

3. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi va globallashuvi sharoitida soliq tizimini uyg'unlashtirish modernizatsiya qilishda ko'plab muammolar hal qilish lozim.

4. Soliq islohotining asosiy elementlari soliq siyosatining strategik yo'nalishlariga mos kelishi: soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, ayrim soliqlar bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlash qoidalaridagi holatlarni to'g'irlash.

5. Soliq siyosati iqtisodiy siyosatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida iqtisodiyotning Real sektorini rivojlantirishni rag'batlantirish tizimiga aylantirilishi lozim. Asosiy muammoni hal qilishdan tashqari, makroiqtisodiy barqarorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning hozirgi bosqichida soliq siyosati to'rtta umumlashtirilgan muammolarni hal qilishi kerak: daromadlar, ichki ishlab chiqarishni himoya qilish, aholi daromadlarini tenglashtirish va ijobiy to'lov balansini ta'minlash.

Ushbu takliflarni amaliyotda qo'llash kelajakda soliq siyosatini olib borishda va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimi ta'sirchanligini oshirishda hizmat qiladi degan fikrdamiz.

#### **Adabiyotlar / Лумература / Literature:**

Besfamille M., Siritto C.P. (2009) *Modernization of tax administrations and optimal fiscal policies // Journal of Public Economic Theory.* –Т. 11. – №. 6. – С. 897-926.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son*

Jin L., Krever R. (2010) *Globalization and Modernization as Drivers for Tax Reform in the Socialist Market Economy // Theoretical Inquiries in Law.* – Т. 11. – №. 2. – С. 687-723.

Taufik K. (2018) *Modernization of the tax administration system: a theoretical review of improving tax capacity // E3s web of conferences. – EDP Sciences, –Т. 73. – С. 10022.*

Бердиева У.А. (2018) *Вопросы модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан в целях повышения эффективности администрирования налоговой задолженности // Экономика и бизнес: теория и практика. №5-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-modernizatsii-nalogovoy-sistemy-v-respublike-uzbekistan-v-tselyah-povysheniya-effektivnosti-administrirovaniya-nalogovoy> (дата обращения: 19.12.2023).*

Леонова Е.Д., Митрофанова И.А. (2010) *Формирование налоговой культуры как стратегическое направление модернизации налоговой системы в России // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-nalogovoy-kultury-kak-strategicheskoe-napravlenie-modernizatsii-nalogovoy-sistemy-v-rossii>*

Номазов Б.Б. (2023) *О ЗАДАЧАХ МОДЕРНИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА // Экономика и социум. №5-1 (108). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zadachah-modernizatsii-nalogovoy-sistemy-uzbekistana>*

Рощупкина В.В. (2012) *Современные тенденции модернизации бюджетно-налоговой системы региона // Финансовая аналитика: проблемы и решения. №48. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-modernizatsii-byudzhetno-nalogovoy-sistemy-regiona>*

Шамшетова Д.С., Айтмуратова У.Ж. (2018) *ИЗМЕНЕНИЯ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ // Экономика и социум. №4 (47). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izmeneniya-v-nalogovoy-sisteme-respubliki-uzbekistan-v-usloviyah-modernizatsii-ekonomiki>*